



ONTOLOGICAL ASPECTS OF THE DIALECTIC OF KNOWLEDGE AND PRACTICE

Mustafo Toyirqulovich Xidirov

Doctoral Researcher at the National University of Uzbekistan

E-mail: xmt.2017@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: knowledge, activity, dialectics, ontology, gnoseology, thinking, perception, comprehension, being, freedom, consciousness, subject, object, subject of knowledge, mechanism of activity, practice, theory, cognitive process, human essence, movement, thought dynamics, ontological foundation, goal-directedness, cognitive activity, ontological unity, reflection, social consciousness, spiritual activity.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: The article analyzes the dialectical relationship between knowledge and practice from an ontological perspective. It explores the role of knowledge in theory and practice, its ontological foundation in the process of cognition, and its significance in understanding human essence. From the dialectical standpoint, the ontological unity between knowledge and practice, the dynamics of thought between them, reflection, and the formation of interdependence through social consciousness and spiritual activity are examined. The article also analyzes the interaction between the subject and object of knowledge, the ontological foundations of the mechanism of activity, and the philosophical interpretation of goal-directed human action.

BILIM VA FAOLIYAT DIALEKTIKASINING ONTOLOGIK JIHATLARI

Mustafo Toyirqulovich Xidirov

O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti

E-mail: xmt.2017@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bilim, faoliyat, dialektika, ontologiya, gnoseologiya, tafakkur, idrok, anglash, mavjudlik, erkinlik, ong, subyekt, obyekt, bilim subyekt, faoliyat mexanizmi, amaliyot, nazariya, bilish jarayoni, inson mohiyati, harakat, tafakkur dinamikasi, ontologik asos, maqsadga yo'naltirilganlik, bilish faoliyati, ontologik birlik, refleksiya, ijtimoiy ong, ma'naviy faoliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilim va faoliyat o'rtasidagi dialektika ontologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bilimning nazariya va amaliyotdagi roli, uning bilish jarayonidagi ontologik asosi va inson mohiyatini anglashdagi o'rni ochib berilgan. Dialektika nuqtai nazaridan bilim va faoliyat o'rtasidagi ontologik birlik, ular orasidagi tafakkur dinamikasi, refleksiya, ijtimoiy ong va ma'naviy faoliyat orqali shakllanuvchi

o‘zaro shartlanganlik tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, bilim subyekti va obyektining o‘zaro munosabati, faoliyat mexanizmining ontologik asoslari hamda maqsadga yo‘naltirilgan inson harakatining falsafiy yondashuv orqali tahlili amalga oshirilgan.

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДИАЛЕКТИКИ ЗНАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мустафо Тойиркулович Хидиров

Докторант Национального университета Узбекистана

E-mail: xmt.2017@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
знание, деятельность, диалектика, онтология, гносеология, мышление, восприятие, осмысление, бытие, свобода, сознание, субъект, объект, субъект познания, механизм деятельности, практика, теория, процесс познания, сущность человека, движение, динамика мышления, онтологическая основа, целенаправленность, познавательная деятельность, онтологическое единство, рефлексия, общественное сознание, духовная деятельность.	В данной статье анализируется диалектика взаимосвязи знания и деятельности с онтологической точки зрения. Раскрыта роль знания в теории и практике, его онтологическая основа в процессе познания, а также значение для осмысления сущности человека. С точки зрения диалектики рассмотрено онтологическое единство знания и деятельности, динамика мышления между ними, рефлексия, формирование взаимной обусловленности через общественное сознание и духовную деятельность. Также в статье анализируются отношения между субъектом и объектом знания, онтологические основы механизма деятельности и философский подход к целенаправленному человеческому действию.

Kirish

Falsafa tarixida bilim va faoliyat dialektikasi turli shakl va mazmunda talqin qilinishi bilan bog‘liq bahslarga sabab bo‘lgan eng muhim falsafiy muammolardan biridir. Antik davrda bilimning mavjudligi tabiat hodisalarini tushunishda ustuvor ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda diniy tasavvurlar inson faoliyatining yangi bilish imkoniyatlarini shakllantirish zaruratini yuzaga chiqardi. Yangi davrdan boshlab esa bilim va faoliyatning yaxlit dialektik asoslari shakllana boshladi. Xususan, Frensis Bekon qarashlari buning yaqqol tasdig‘idir. F. Bekon – “Inson faqat tabiat qonunlarini bilganidagina uni o‘zgartirish kuchiga ega bo‘ladi. Bilim – bu faollikdir, faollik esa kuchdir”[1], degan g‘oyaga tayanadi.

Zamonaviy falsafaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bu insonning bilish imkoniyatlarini, tafakkur faoliyatini va amaliy hayotdagi harakatlarini ontologik asosda tahlil

qilishdan iborat. Inson – ongli mavjudot sifatida borliqni bilishga, uni tushunishga va unga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan mavjudlik sifatida e'tirof etiladi. Ushbu jarayon esa bilim va faoliyatning uzviy bog'liqligi asosida kechadi. Bilim – bu tafakkurning mahsuli, faoliyat esa bilim asosida shakllanuvchi amaliy harakatdir. Falsafiy yondashuvda ular o'rtasidagi munosabat doimiy o'zgarish va harakatda bo'lgan dialektik birlik sifatida tushuniladi. Globallashuv sharoitida, bir tomondan, zamonaviy jamiyatda inson tafakkuri, ongli harakati va erkinligini chuqur anglash zarurati bilan, boshqa tomondan esa, ilmiy bilimlarning amaliy hayotga tatbiq etilishida yuzaga kelayotgan muammolar bilan belgilanadi. Ayniqsa, raqamli davrda bilim tez yangilanayotgan, faoliyat esa tobora murakkablashayotgan sharoitda ularning ontologik mohiyatini tahlil qilish – nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Bilim va faoliyat dialektikasining ontologik jihatlariga oid qarashlar olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ushbu yo'nalishda ko'plab olimlarning asarlari bilim va faoliyat dialektikasida muhim o'rin tutadi. Xususan, Frensis Bekonning "Yangi Organon" asarida bilim va faoliyat dialektikasi haqida bevosita "dialektika" atamasi ishlatilmagan bo'lsa-da, bilimning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligi ustuvor g'oya sifatida namoyon bo'ladi. M.S.Kagan esa, inson faoliyatini murakkab tizim sifatida ko'rib, bunda bilim nafaqat faoliyatning natijasi, balki uning zaruriy sharti va tarkibiy elementi ekanini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi bilim va faoliyat dialektikasining ontologik jihatlarini tahlil qilish, bu jarayonlarning ontologik va amaliy jihatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida dialektik metod asosida bilim va faoliyatni tahlil qilishda, tarixiylik metodidan faoliyat bilan bog'liq ontologik jihatlar evolyutsiyasidagi vorisiylik va novatorlikni asoslash, tizimli yondashuv orqali bilim vositasida faoliyatni inson borlig'ida aks etishi tahlil qilingan.

Tahlillar va natijalar

Zamonaviy ilmiy tafakkurda inson faoliyati va bilish jarayoni bir-biridan ajralmas hodisalar sifatida qaralmoqda. Insonni bilish obyektiga aylantirgan fanlar esa, nafaqat uning jismoniy tabiati, balki ijtimoiy va madaniy mohiyatini ham o'rganishni ko'zda tutadi. Shu bois, ularni o'rganish jarayoni turli fanlar yondashuvining birlashuvini talab etadi: "Insonni o'rganish – ya'ni uning tabiiy va ijtimoiy mohiyatini bir butun holda tahlil qilish – bu sohaga oid fanlardan tabiiy va ijtimoiy fanlarga xos yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Masalan, psixologiya yoki pedagogika insonni o'rganishda tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy-ilmiy metodlarni birlashtiruvchi fanlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, bu uch (tabiiy, ijtimoiy, gumanitar) fan yo'nalishiga nisbatan yana to'rtinchi guruh – ontologik fanlar – ajratib ko'rsatiladi. Mazkur fanlar yaxlit holda bilish obyektlarining umumiy xossalarini – tabiat, jamiyat va inson faoliyatiga xos bo'lgan

umumiy qonuniyatlar, mavjudotdagi miqdoriy va sifat jihatdan umumiy munosabatlarni – o‘rganish bilan shug‘ullanadi.”[2]. Demak, inson tabiatini to‘laqonli anglashga qaratilgan yondashuv faqat alohida fanlar doirasidagina emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi, metodologik asoslarining integratsiyasi orqali ro‘yobga chiqadi. Ayniqsa, ontologik fanlarning roli bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular bilish obyektlarining mohiyatiga oid eng umumiy qonuniyatlarni aniqlashga intiladi va shu orqali barcha fanlar uchun umumiy nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, bilim va faoliyat o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni tushunishda aynan ontologik yondashuv metodologik kalit vazifasini bajaradi. Bunda inson faolligi, bilish jarayoni va mavjudlikning o‘zaro birligi ilmiy tafakkur doirasida yaxlit konseptual asos sifatida qaraladi.

Bilim va faoliyat o‘rtasidagi dialektik o‘z navbatida inson mavjudligi va jamiyat taraqqiyotidagi roli, tafakkur dinamikasi, refleksiya, ijtimoiy ong, ma’naviy faoliyat va subyektning erkin harakati bilan bevosita aloqasi ontologik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali yaxlit mazmun kasb etadi. “Bilim va faoliyat o‘rtasidagi dialektik o‘z navbatida inson mavjudligi va jamiyat taraqqiyotidagi roli, tafakkur dinamikasi, refleksiya, ijtimoiy ong, ma’naviy faoliyat va subyektning erkin harakati bilan bevosita aloqasi ontologik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali yaxlit mazmun kasb etadi”[3]. Bilim va faoliyat o‘rtasidagi dialektik munosabat, inson ongining shakllanishi va uning jamiyatdagi faol ishtiroki nuqtai nazaridan, zamonaviy falsafaning muhim tushunchalaridan biridir. Ushbu munosabat inson mavjudligi va uning jamiyatdagi roli haqida chuqur falsafiy xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi. Bilim faqat nazariy tushuncha emas, balki u faoliyat orqali paydo bo‘ladi, rivojlanadi va hayotda o‘z tasdig‘ini topadi. Faoliyat esa insonning real mavjudlikdagi ishtiroki orqali amalga oshadigan harakat bo‘lib, bilimni ishlab chiqarishning ijtimoiy shaklidir. Ilmiy tafakkur esa faoliyatni yangi bosqichga ko‘tarishda asos vazifasini bajaradi.

“Ilmiy tafakkur tarzi ma’lum fikrlash faoliyati shakli bo‘lib, uning doirasida obyektning o‘ziga xos tomonlari ifodalanadi. Unga mos bo‘lgan ilmiy faoliyat standartlari va normalari ma’lum tarixiy bosqichda ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida shakllanadi”[4]. Shu sababli, ilmiy tafakkur tarzi nafaqat individning aqliy faoliyati, balki jamiyatdagi ilmiy va madaniy me’yorlar, qadriyatlar va talablar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Har bir tarixiy bosqichda ilmiy tafakkur shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga, shuningdek, ilmiy metodologiyalarga asoslanadi. Bu jarayon jamiyatning rivojlanishiga qarab, yangi yondashuvlar, metodlar va izlanish usullarini yaratishga olib keladi.

Inson mavjudligi – bu oddiy biologik mavjudlik emas, balki ijtimoiy, madaniy va ma’naviy jihatdan to‘laqonli faoliyat yuritishga asoslangan ontologik holatdir. Bu mavjudlikni chuqur anglash uchun insonning faoliyatdagi o‘rni va u orqali shakllanadigan bilimni tahlil qilish

muhimdir. Bilim insonning jamiyatdagi rolini aniqlaydi; jamiyat esa o'z navbatida inson tafakkurining tarkibiy qismlarini – refleksiya, ijtimoiy ong va ma'naviy faoliyatni shakllantiradi.

Tafakkur dinamikasi inson aqliy faoliyatining doimiy harakatda, o'zgarishda, o'z-o'zini tahlil qilish va yangilashda ekanligini bildiradi. Bu jarayon refleksiya – ya'ni o'z fikriga ongli nazar tashlash – orqali amalga oshadi. Inson faqat tashqi voqelikni anglash bilan cheklanmay, balki o'z tafakkuri va faoliyatini ham tahlil qilishga, uni anglashga qodir mavjudotdir. Shu nuqtai nazardan, refleksiya nafaqat gnoseologik, balki ontologik ahamiyatga ham ega. “Zamonaviy ong falsafasi va kognitiv fan nuqtai nazaridan qaralganda, refleksiya – ikkilamchi aqliy holatlar yoki metakognitsiya (ya'ni tafakkur ustidan fikr yuritish) sifatida tushuniladigan jarayon – insonni bevosita sezgi ta'siridan tashqariga chiqib umumlashtirishga, shuningdek, o'z tafakkur jarayonini baholash va uni o'zgartirishga qodir qiladi. Shu tarzda refleksiya nafaqat gnoseologik (bilish vositasi) sifatida, balki inson mavjudligining ontologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini anglash va o'zini shakllantirishning asosiy manbai sifatida ko'zga tashlanadi” [5]. Bu yondashuvda refleksiya oddiy idrokiy jarayon emas, balki insonning o'z fikrlash faoliyatini nazorat qilish, uni baholash va zarur hollarda yangilash imkonini beruvchi metakognitiv qobiliyat sifatida ko'riladi. Aynan mana shu jihati bilan u nafaqat gnoseologik vosita – ya'ni bilim olish va uni asoslash vositasi – balki ontologik asos – ya'ni insonning mavjudlik tarzini belgilovchi muhim xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

Bilim va faoliyatning dialektik aloqasi inson tafakkurining shakllanishi va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Inson ongi nafaqat tashqi muhitni aks ettiradi, balki ushbu aks ettirish jarayonida tushunchalar orqali faoliyat shakllarini yaratadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ilmiy tushunchalar va amaliy harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash bilimning faoliyatga aylanish mexanizmini tushunish uchun muhim falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi. “Ilmiy tushunchalar (kontseptsiyalar) va harakatlar (amaliyotlar) o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjudligi ayon bo'ladi: ularning har ikkisi ham subyektning ongli idrokining yuqori bosqichida joylashgan bo'lib, ixtiyoriy tarzda – aniq maqsadga yo'naltirilgan holda – amalga oshiriladi. Ushbu uyg'unlik “tushuncha–harakat” (concept–action) deb nomlanadi. Xuddi shuningdek, kundalik hayotdagi tushunchalar va operatsiyalar ham o'zaro bir butunlikni tashkil etadi, biroq bu yerda asosiy xususiyat – ongli idrokning past darajasi va harakatlarning beixtiyor tarzda bajarilishidir. Shu ma'noda, “tushuncha–operatsiya” (concept–operation) tushunchasi “tushuncha–harakat”ning shakllanishi uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladi.” [6]. Demak, bilim va faoliyat o'rtasidagi murakkab aloqadorlik inson tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Tushuncha–operatsiya” bosqichi orqali ongning asta-sekin murakkablashuvi kuzatiladi va bu holat “tushuncha–harakat” darajasigacha yetaklaydi. Shu tarzda, inson o'zining kognitiv (bilish) qobiliyatlarini faoliyatda ro'yobga chiqarib, nazariy

bilimlarni amaliy harakatlarga aylantirish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa bilimning faqat bilish emas, balki faoliyatga yo'naltirilgan transformatsion kuch sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bilim va faoliyatning tushunishning bu ilmiy tushunchalar va amaliy harakatlarga asoslangan yondashuvlarga tayangan holda ontologik jihatdan tasniflash imkoniyati yanada konkretlashadi. Bilim va faoliyat dialektikasini quyidagi jadval asosida ontologik jihatdan tasniflashimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

T/R	Bilim vositasida faoliyat tamoyillarini takomillashtirishga xizmat qiladigan ontologik jihatlar	Faoliyat natijasida bilimga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi bilan bog'liq ontologik jihatlar
1.	borliqning o'zgaruvchanligi va rivojlanishi	borliqning murakkabligi va noma'lum qirralarining mavjudligi
2.	insonning faol mavjudlik sifatidagi tabiati	harakat va o'zgarishning bilishga olib boruvchi xarakteri
3.	borliq va ongning birligi	obyektiv voqelik in'ikosida paydo bo'ladigan tushunmovchiliklar
4.	bilimning obyektivlashuviga bo'lgan ehtiyoji	faoliyat jarayonida o'zini anglashga
5.	amaliyot – haqiqat mezoni sifatidagi ahamiyati	amaliy ehtiyojdan kelib chiqadigan bilishga ehtiyoj intilishi
6.	bilim va ehtiyojlar o'rtasidagi ontologik uzviylik	kutilmagan natijalar va bilim zarurati
7.	bilimning transformatsiyalashuvi	borliqni anglash va unga moslashish zarurati
8.	subyekt va obyekt o'rtasidagi ontologik bog'liqlik	subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir

Bilim va faoliyat dialektikasini quyidagi jadval asosida ontologik jihatdan tasniflash bevosita insonning ongli hayotiy faoliyatining tub mohiyatini tashkil etadi. Ularning ontologik asoslari esa nafaqat nazariy, balki amaliy faoliyatning doimiy harakatda, o'zgarishda va o'z-o'zini anglashda ekanligini ko'rsatadi. Jadval shaklida taqdim etilgan ikki tomonlama qarash bu bog'liqlikning murakkab, ammo izchil tabiatini ochib beradi.

Birinchi tomondan, bilim vositasida faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladigan ontologik jihatlar faoliyatni anglash va yo'naltirishda bilimning yetakchi rolini ko'rsatadi. Borliqning o'zgaruvchanligi va insonning faol mavjudlik sifatidagi tabiati shuni ko'rsatadiki, inson faoliyati doimiy yangilanish va rivojlanishga ehtiyoj sezadi. Bu jarayonda bilim – borliq va ongning birligida – muhim vosita sifatida yuzaga chiqadi. Ayniqsa, bilimning obyektivlashuvi, ya'ni tashqi dunyoni anglashga qaratilganligi, faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

Bu jihatlar falsafada gnoseologik realizm va ontologik dinamizm tamoyillari orqali o'z ifodasini topadi. Chunki inson bilim orqali mavjudotning sirlarini ochishga, uni o'zgartirishga intiladi. Shu bilan birga, amaliyot – haqiqat mezoni sifatida – bilimning haqiqiylikni tekshiradi

va uni real hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda subyekt va obyekt o'rtasidagi ontologik bog'liqlik – bilishning mohiyatini tashkil etadi.

Ikkinchi tomondan esa, faoliyat natijasida bilimga bo'lgan ehtiyojning paydo bo'lishi bilan bog'liq ontologik jihatlar faoliyatning o'ziga xos dinamik tabiati orqali noaniq voqeliklarni vujudga kelishini ko'rsatadi. Borliqning murakkabligi va noma'lum qirralarining mavjudligi bilimga bo'lgan ehtiyojni tug'diradi. Inson harakati va amaliy faoliyati esa yangi vaziyatlarni yuzaga keltiradi va bu esa yangi bilimlar talab etadi. Faoliyatdagi har qanday o'zgarish, ayniqsa, tushunmovchiliklar va kutilmagan natijalar, insonni muqarrar ravishda bilim izlashga, anglashga, va hatto ongini yangilashga undaydi. Bu esa falsafada ontologik nomuvofiqlik va bilish jarayonining uzluksizligi tamoyillarini aks ettiradi. Inson bu muammolarni hal qilish uchun yangi ilmiy va axborotga asoslangan yondashuvlarga murojaat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bilim va faoliyat o'rtasidagi dialektik munosabat ikki tomonlama: bilim faoliyatni shakllantiradi, faoliyat esa yangi bilimlarning zaruratini keltirib chiqaradi. Ular o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi va harakatlantiruvchi omillardir. Bunda subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir doimiy harakatda, ongli tanlovlar orqali kechadi. Shuningdek, bu munosabatning ontologik jihatlari, ayniqsa, bilim va ehtiyojlar o'rtasidagi ontologik uzviylik, bilimning transformatsiyalanuvchanligi, faoliyatga moslashish zarurati, bilimni obyektivlashtirish ehtiyoji kabilar orqali chuqur falsafiy asosga ega bo'ladi. Bu esa insonning o'zligini anglash, mavjudotni tushunish va o'z hayotiy faoliyatini mazmunan boyitishida fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, bilim va faoliyatning dialektikasi, ayniqsa, jamiyatning siyosiy tizimi va ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida qaratilayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Har bir jamiyatda siyosiy va ma'naviy hayotning o'zaro bog'lanishi, davlatning va hokimiyatning bu jarayonni qanday boshqarishi, jamiyatdagi faoliyatlar va faoliyatni amalga oshirishda ulardagi bilimlarning roli muhim ahamiyatga ega. "Har qanday jamiyatning ma'naviy hayoti nafaqat ijtimoiy soha, balki siyosiy tizimi va faoliyati uzviy aloqada namoyon bo'ladi. Bu esa, ushbu jabhaning qonuniyatidir. Barcha siyosiy institutlar, davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada davlat, hokimiyat va boshqaruv tizimining o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Negaki, aynan ular ma'naviy hayotni boshqaradi, bu boradagi faoliyatni tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi" [7]. Siyosiy tizim va davlat hokimiyati jamiyatdagi ma'naviy hayotni shakllantirishda faol ishtirok etadi, ular ijtimoiy faoliyatlarni boshqarish, tahlil qilish va amalga oshirishda bilimlarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi. Bilim va faoliyatning o'zaro aloqasi va ularning jamiyatning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri aynan bu jarayonlarning muvaffaqiyatli ishlashiga bog'liqdir.

Shunday qilib, jamiyatda ma'naviy va siyosiy faoliyatni boshqaruvchi organlar o'zlarining bilim asosida amaliy harakatlar qilishlari zarur.

Xulosa. Bilim va faoliyat o'rtasidagi dialektik munosabat inson tafakkuri va mavjudligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bilim – insonning borliq haqidagi idrokiy munosabati bo'lsa, faoliyat – uning ushbu bilim asosida harakatga o'tishidir. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bilim va faoliyat o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ularning uyg'unligi orqali inson o'z mohiyatini amalga oshiradi, jamiyat esa rivojlanadi. Bilim va faoliyatning ontologik tahlili insonni faqat biluvchi subyekt emas, balki faol, maqsadga yo'naltirilgan, erkin harakat qiluvchi mavjudot sifatida tushunishga zamin yaratadi. Ularning o'zaro shartlanganligi tafakkur dinamikasi, refleksiya, ijtimoiy ong, ma'naviy va madaniy faoliyat orqali namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv orqali inson va jamiyat taraqqiyotini chuqur anglash, ilmiy bilishning amaliy ahamiyatini aniqlash, hamda falsafiy tafakkur doirasini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shunday qilib, bilim va faoliyatning dialektik birligi – bu insonning mavjudligini, tafakkurining shakllanishini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini va erkinligining mazmunini anglashda markaziy tushunchadir. Ular orqali inson jamiyat taraqqiyotiga nafaqat moslashadi, balki uni faol tarzda o'zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bacon F. The New Organon (L. Jardine & M. Silverthorne, Trans.). – Cambridge University Press. 2000. – P. 33.
2. Каган М. С. Человеческая деятельность. (Опыт системного анализа). – М., Политиздат, 1974. – С. 60.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978. – P. 65.
4. Шермухаммедова Н. А. Стиль научного мышления. – Т., Национальное общество философов Узбекистана, 2006. – С. 54.
5. Stephens, A., Tjøstheim, T.A. The Cognitive Philosophy of Reflection. *Erkenn* 87, 2219–2242 (2022). <https://doi.org/10.1007/s10670-020-00299-0>
6. Lago L., Mattos C. Bridging Concept and Activity: a Dialectical Synthesis Proposal. *Kul'turnoistoricheskaya psikhologiya = Cultural-Historical Psychology*, 2021. Vol. 17, no. 2, pp. 29—36. DOI: <https://doi.org/10.17759/chp.2021170203>
7. Axmedov X. Ma'naviy hayot va siyosiy faoliyat // *Imom Buxoriy saboqlari*. Samarqand. 2024. – №2. – B. 148.